

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2011-yil
1-avgust
N:31
(66832)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqra boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



Yusuf SHOIMOV va
Alisher BAYMAKOV
bu yil Respublika
Olimpiya zaxiralari
kollejining talabalari
bo'lishdi.

Ularga o'qishda
va sportda ulkan
muvaffaqiyatlar tilaymiz!

SIZGA OMAD YOR BO'LSIN!

Bugun mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlari bilimga chanqoq o'g'il-qizlar bilan gavjum. Litsey va kollejlarni tamomlagan yoshlar olgan bilimlarini yana bir bor sinovdan o'tkazayptilar. O'quv maskanlariga dadil qadamlar bilan kirib borayotgan yoshlarning o'zlariga bo'lgan ishonchini ko'rib quvonasan kishi. Istiqlolning dastlabki yillaridanoq yoshlarning puxta bilim olishlariga alohida e'tibor qaratilishi, ularning jahon talablari darajasidagi maktab, litsey va kollejlarda ta'lim olishlarini ta'minlash bugungi kunda o'z samarasini bermogda.

Yoshlarimiz hech bir sohada o'z tengdoshlaridan kam emasliklarini namoyon etmoqdalar. Bu yil oliy o'quv yurtlariga kirish uchun talabgor yoshlarning har qachongidan ko'pligining boisi ham shundadir.

O'quvchi do'stim! Siz ham shu bugundan boshlab chuqur bilim olishga kirishing. Eh-he, o'qishga kirishimga hali ancha bor, deysizmi? Shunday fikrda bo'lsangiz, xato qilasiz. Hozirdanoq puxta bilim olish payida bo'ling. Shundagina aka-opalaringiz kabi oliy o'quv yurtlariga imtihon topshirish uchun dadil kirib borasiz va ota-onangiz, ustozlaringiz ishonchini, albatta, oqlaysiz.

O'z muxbirimiz



Dunyo ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy, Ahmad Farg'oniy singari buyuk allomalarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Ularning ilmiy kashfiyotlari o'qov yurtlari, olim-u tadqiqotchilar uchun hamon asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Mashhur yurtodoshlarimiz hayoti va ilmiy faoliyatini bilish har bir o'quvchining muqaddas burchidir. Bugun biz ana shunday olimlardan biri Muso al-Xorazmiy haqida hikoya qilamiz.

Xorazmlik bu mashhur olim Yevropada «Algorizmus» nomi bilan tanilgan. U ilmiy faoliyatining katta qismini Bag'doddagi «Bayt ul-hikma» («Hikmatlar uyi»)da o'tkazgan va olamshumul muvaffaqiyatlarga erishgan.

O'sha davrda Sharqning eng mashhur ilm dargohi bo'lgan xalifa Ma'mun akademiyasini ma'lum muddat Xorazmiy boshqargan. Xalifa Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyni olim sifatida yuksak qadrlagan.

Al-Xorazmiy hozirgi zamon matematika fanining bir qancha tarmoqlarini asoschisi hisoblanadi. Uni algebra fanining otasi, deb tan olishgan. Mashhur olim mazkur fanni nafaqat ma'lum bir tizimga soldi, balki bu fandagi oddiy va murakkab kvadrat tenglamalarning tahliliy yechimini ham ishlab chiqdi.

«Algebra» so'zining o'zi olimning mashhur «Al-Jabr val-muqabala» nomli kitobining birinchi so'zidan olingan bo'lib, hozirgi kunda fundamental fan hisoblanadi.

Hammamizga ma'lum «0» (nol) sonining ishlatilishi ham al-Xorazmiy tomonidan rasmiy ravishda arif-



metika faniga olib kirilgan. Shu oddiygina «0» tufayli bugungi kunda foydalanilayotgan sonlarning o'nlik sanoq tizimi butun dunyoga tarqaldi.

Yurtboshimiz alohida ta'kidlaganlaridek: «Muhammad Muso Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasini, algoritim va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani umumin-

soniy taraqqiyot rivojida katta ahamiyatga ega bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz».

Al-Xorazmiy qalamiga mansub arifmetika, astronomiya, geografiya va boshqa aniq fanlarga oid yigirmadan ortiq asarlarning o'ntachasi bizgacha yetib kelgan. Mazkur asarlarning ayrimlari o'rta asrlarda g'arb tillariga tarjima qilinib, Yevropada katta shuhrat qozongan. Bu borada olimning Vatani —

O'zbekistonda ham katta ishlar qilingan. Uning ko'pgina asarlari tadqiq etilib, o'zbek va rus tillarida nashr etilgan. Ko'hna Xivada olim sharafiga haykal o'rnatilgan, respublikamiz poytaxti, viloyatlaridagi ko'pgina ko'cha va xiyobonlar, maktablar al-Xorazmiy nomi bilan ataladi.

Darhaqiqat, buyuk vatandoshimizning nomi dunyo olimlarining eng oldingi qatorida turibdi. Mashhur olim Jorj Sartonning ta'biri bilan aytganda: «Al-Xorazmiy o'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuk insonlaridan biri hisoblanadi».

Hozirgi kunda mustaqil Vatanimizning ko'pgina ta'lim maskanlarida matematika, algebra fanlari bo'yicha ko'plab iqtidorli yoshlar yetishib chiqmoqda.

Mashhur olimning ona yurti Xorazmning Bog'ot va Shovot tumanlaridagi ixtisoslashgan litseylarida, Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi hamda Samarqanddagi 1-sonli akademik litseyda ta'lim olayotgan talabalar matematika fani bo'yicha respublika va jahon olimpiadalarida yuqori o'rnlarni egallab kelmoqdalar.

«Oqqan daryo oqmasdan qolmas» deganlaridek, ulug' insonlarning munosib avlodlari ham buyuk ajdodlari izidan dadil bormoqdalar.

Jabbor RAZZOQOV

Shahzoda Obloqulova gazetamizning yaqin do'sti. Yaqinda u tahririyatimizga ikki quloqlik maktub yo'llabdi. Odatda bunday maktublar kino va estrada yulduzlariga yuborilar edi. Shahzodaning e'tiboridan mamnun bo'ldik. U bizni Nurotaga sirtqi sayohatga chorlabdi:

BIR RUKN OCHILSA...

Nazarimda, Nurota chashmasi yomon ko'zlardan asrash uchun tog'lar orasiga yashirib qo'yilganday tuyuladi. Ertayu kech u yerdan ziyoratchilarning qadami arimaydi. Bir zamonlar Iskandar Zulqarnayn askarlari har tong chashmadan ko'kka taralayotgan nurni ko'rib, hayratga tushgan ekanlar. Odamlar orasida, Iskandar bu joyni Nurota deb atagan, degan gaplar yuradi. Yana bir rivoyatga qaraganda, qadimda chashmaga yaqin qishloqda yashagan olim Abdulhasan Nuriy nomi bilan ham bog'lashadi.

Chashma suvi yozda ham, qishda ham bir xil — 19 darajaga teng bo'ladi. Uning tarkibi turli minerallarga boyligi ham ko'p bor e'tirof etilgan. Baliqlari kishi ko'zini quvontiradi. Baliqlarning chashmadan 36 km. uzoqlikdagi boshqa buloqlarda ham paydo bo'lib qolishi naqd mo'jizaning o'zginasi. Chashma yaqinidagi Nur qal'asi ko'hna tarixdan rivoyat so'zlayotganday ko'rinadi. Uzoquzoqlardan ko'zga tashlanib kishini moziyga yetaklaganday bo'ladi.

Qadrlif gazetam! Nurotam haqida biroz ma'lumot berdim. Sahifalaringda «Tarixiy obidalarimiz» nomli rukn ochilsa va tengdoshlarimiz o'zlari yashab turgan joylar haqida qiziqarli ma'lumotlar bersalar, qanday yaxshi bo'lardi.

Shahzoda OBLOQULOVA,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi
18-maktab o'quvchisi

YOSH MUXBIRINGIZ BO'LSAM...

Sevimli gazetam «Tong yulduzi»ning har bir sonini qoldirmay o'qib boramiz. Maktabimizda o'tadigan tadbirlar, ochiq darslarda, albatta, unga murojaat qilib, turli kerakli ma'lumotlar olamiz. Mening bir istagim bor: «Yosh muxbir» sifatida gazetaga maktabimizda, tumanimizda bo'layotgan yangiliklar, o'tkazilayotgan tadbirlar haqida ma'lumotlar yozib tursam degandim. Bu namunalar ham yuborib tursam degandim. Bu qalamimning yanada charxlanishiga yordam beradi, degan umiddaman.

Gazetada yangi, qiziqarli sahifalar ko'payishini istab qoluvchi muxlisangiz

Ma'suma SINDOROVA,
Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi
7-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

Tahririyatdan:
Xuddi shunday mazmundagi xatni bizga Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi Bobur nomli 2-maktabning 7-sinf o'quvchisi Maftuna NOSIROVA ham yo'llagan.

Aziz o'quvchilarimiz Maftuna va Ma'sumaxon! Bizga qishlog'ingizdagi yangiliklar, tengdoshlaringizning ta'til kunlarini qay yo'sinda o'tkazishayotgani haqida maktub yo'llang. Bu tengdoshlaringizga ham juda qiziqarli bo'ladi, deb o'ylaymiz.



Yildan-yilga Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga da'vogarlar soni ortib bormoqda. Iqtidorli qizlarimiz har sohada o'z bilimlarini sinab ko'rmoqdalar. Ushbu nufuzli mukofot va uning sohibalari haqida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining yetakchi mutaxassisi Guljamol Asgarova bilan bo'lgan suhbatimizda, sovrindorlarning bugungi kunda erishayotgan yutuqlari borasida quyidagilarni gapirib berdi:

– Bugungi kunda sovrindorlardan uch nafari Prezident stipendiyasiga sazovor bo'ldilar. Ikki nafari nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 15 nafari esa sport yo'nalishida chempionlikni qo'lga kiritdilar. Ular orasida Ibn Sino, Alisher Navoiy stipendiatlari ham talaygina...

Darvoqe, Guljamol opaning o'zi ham ushbu nufuzli mukofotga birinchilar qatorida erishgan edi. Bugungi kunda Zulfiyaxonim qizlarining safi yanada kengayib borayotgani behad quvontiradi kishini...

ZEBUNISO



O'z bilimi, iqtidori tufayli ko'plab muvaffaqiyatlarga erishib kelayotgan buxorolik Zebuniso Murodova ham Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalaridan biri. Istiqolol tengdoshi bo'lgan Zebuniso bolaligidan adabiyotga mehr qo'yib ulg'aydi. Maktabda o'qib yurgan chog'laridanoq Vatan, tabiat mavzularida she'rilar yoza boshladi. Jajji «shoira» o'sha paytlardayoq telejurnalist bo'lishni orzu qilgan edi. Bu qiziqishlari uni «Yosh jurnalist» to'garigiga yetaklagan bo'lsa, olgan bilimlari «Shabnam» nomli ilk she'riy to'plami chop etilishiga turtki bo'ldi. Iqtidorli qizaloq fan sohasida ham

yuksak cho'qqilarni zabt eta boshladi. 2006-yilda ona tili va adabiyot fani bo'yicha fan olimpiadasining viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladi. Bu muvaffaqiyatlardan yanada ruhlaniib, Buxoro televideniyesi orqali namoyish etiladigan «Qizlarjon», «Kamolot sari» mualliflik teleko'rsatuvlarida boshlovchilik qila boshladi. 2007-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga loyiq topilgan Zebuniso O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetiga imtiyozli ravishda qabul qilindi. Ko'p o'tmay a'loch talabalar qatori Buxoro viloyat hokimi stipendiyasi sovrindori bo'ldi.

«Men yurtimiz istiqolga erishgan yilda tug'ilganimdan faxrlanaman, – dedi Zebuniso quvonch bilan suhbatimiz boshida, – bu faxr tuyg'usi zimmamga ma'lum ma'noda mas'uliyat hissini ham yuklaydi. Shu kungacha qanday muvaffaqiyatga erishgan bo'lsam, barchasiga Yurtboshimizning biz yoshlarga bo'lgan e'tiborlari sabab, deb bilaman. Vatanim mustaqil O'zbekistonni 20 yoshi bilan qutlar ekanman, unga munosib farzand bo'lishga so'z beraman».

Zebuniso suhbatimiz davomida kamtarlik qilib aytmagan bo'lsa-da, uning «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markaziy Kengashi hamkorligida o'tkazilgan «Kelajak ovozi» mega-tanlovi respublika saralash bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etganidan xabar topdik. Bundan tashqari, Buxoro shahri «Qizlar kengashi» rayosati a'zosi bo'lgan Zebuniso hozirda O'zbekiston telekanalining «Assalom, O'zbekiston» ko'rsatuvida boshlovchi sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

Suhbatimiz so'ngida Zebunisoga bundan-da ulkan zafarlar yor bo'lishini, kelajakda yurtimiz iftixoriga aylanishini tilab qoldik.

Gulyuz BAHODIR qizi

NUFUZLI MUKOFOT MAS'ULIYATI

ISTIQOLOL

1999-yil 10-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

2000-yildan buyon Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san'at, fan va ta'lim yo'nalishlaridagi yutuqlari uchun berib kelinmoqda.

2004-yilda mukofotga 5 mingga yaqin qizlar da'vogarlik qildilar. 2005-yilda bu ko'rsatkich 10 mingdan oshdi. 2007-2008-yillarda o'tkazilgan tanlovlarda 2 millionga yaqin qizlar turli bosqichlarda ishtirok etishdi.

2006-yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari, O'zbekistonning iqtidorli yoshlari ishtirokida «Istiqbolimiz timsollari» nomli anjuman o'tkazildi.

2011-yilga kelib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining soni 168 nafarga yetdi...



Xususan, shu yilning 23-26-iyun kunlari Andijon Davlat universitetida Yo'l harakati yosh avtonazoratchilarining Respublika anjumani o'tkazilganligi ham ana shunday xayrli ishlar debochasidir.

Tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyatlarda o'tkazilgan «Yashil chiroq – 2011» ko'rik-tanlovida g'olib chiqqan ishtirokchilar anjuman Nizomiga asosan «Piyodalar harakati», «Yo'l-transport hodisasida jarohatlanganlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish», «Yosh velosipedchi», «Yo'l hara-

kati qoidasi»dan nazariy imtihon, «Maket yasash», «Radioto'lqinlari orqali boshqariladigan transportlar harakati» hamda «Targ'ibot guruhlarining chiqishlari» kabi turlar bo'yicha o'zaro musobaqalashdilar.

Anjumanning ochilish va yopilish tantanalarida O'zbekiston Respublikasi

«Tadbirkor ayol», O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, «Avtohamroh» jurnali, Andijon viloyati hokimligi, viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi vakillari ishtirok etishdi.

– Ushbu musobaqani o'tkazishdan asosiy maqsadimiz, bolalar o'rtasida «Yo'l harakati qoidalarini»ni



YOSH AVTONAZORATCHILAR ANJUMANI

Ayni kunlarda, o'quvchilarning yozgi ta'til kunlarini maroqli va mazmunli o'tkazaylik, iborasi tez-tez quloqqa chalinib turibdi. Buning zahirida ularning nafaqat ko'ngilli dam olishlari, salomatliklarini tiklashlari, ular bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish, turli falokatlardan asrash kabi dolzarb masalalar yotadi. Shu boisdan ham yurtimizda keyingi paytlarda bolalar ishtirokidagi YTHlarining sodir etilmasligining oldini olish yuzasidan keng ko'lamli profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

IV YHX Bosh boshqarmasi, Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash vazirliklari, Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston Respublikasi «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi,

targ'ib qilish hamda ular ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olishdan iboratdir, – deydi anjuman hakamlar hay'ati raisi IV YHX Bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Anvarxo'ja Sulaymonxo'jayev.

Ta'kidlash joizki, tadbir davomida barcha yosh avtonazoratchilar nazariy va amaliy bilimlarga ega ekanliklarini yana bir bor namoyish etdilar.

Musobaqa yakuniga ko'ra, g'oliblikni qo'lga kiritgan jamoalarga vazirlik va tashkilotlar tomonidan qimmatbaho esdalik sovg'alari taqdim etildi.

Andijonlik yosh avtonazoratchilar oliy o'rinni egallab, musobaqa g'olibi bo'lishdi.

2012-yildagi anjumani o'tkazish estafetasi Namangan viloyati yosh avtonazoratchilariga topshirildi.

Tohir MULLABOYEV



Suratlarda: anjumandan lavhalar.



XAYOL

Qarshimda chayqalar moviyrang dengiz,
Atrofi ulkan tog', baland bir qoya.
Shu qadar buyuksan, shu qadar tengsiz,
Bu go'zal makonga kim bo'lgan doya?

Men esa sersoya tolning ostida,
Olisga boqqancha turibman-ku jim.
O'ynoqi, shoshqaloq shamol dastidan,
To'zg'iydi, yoyilib har tomon sochim.

Qirg'oqqa tushdim-u, yurdim qum kechib,
To'lqinni kuzatdim egilib xiyol.
Shunda murg'ak qalbim tugunin yechib,
O'yladim, bunchalar shirinsan, xayol!

ONAJONIM

Olis bo'lay, bo'lay xoh yaqin,
Porlab turar qalbimda chaqin.
Uzolmayman mehringiz haqin,
Ko'rgim kelar sizni, onajon!

Siz dunyoni tutib qo'limga,
Nur berdingiz o'ng-u so'limga.
Mushtoqdirsiz balki yo'limga,
Ko'rgim kelar sizni, onajon!

Oramizda masofa yiroq,
Xayollarim sizdadir biroq.
Ajratolmas bizlarni firoq,
Ko'rgim kelar sizni, onajon!

Maxsuma OQQO'ZIYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tibbiyot kolleji talabasi

MO'TABAR KOSHONAMSAN

Vatan bog'ing sayr etib,
Bir ajib his tuyaman.
Gullar kabi beg'ubor,
Vatanimni suyaman.

Zilol-zilol suvlardan,
Ho'plab-ho'plab ichaman.
Oq kabutar misoli,
Samolarni quchaman.

Vatan, mening onamsan,
Tepamda parvonamsan.
Quchog'ingda ulg'aydim,
Mo'tabar koshonamsan.

Tuprog'ingni ardoqlar,
O'g'il-qizing, yoshlarmiz.
Obod bo'lishing uchun
Yangi ishlar boshlarmiz.

Shohista SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
G'uzor tumanidagi
26-maktab o'quvchisi

BAXTIMNI QUTLAYSAN

Yuragim zavqini asta chertgancha,
Ko'ngilga joyladim ilhom torini.
Telba yuragimning kuchi yetgancha,
Baralla aytayin dilda borini.
Qalbda yongan uchqun sening shoning-la,
Ma'rifat atridan mayin taraldi.
Menga mehr berding qaysi joning-la,
Yashashga intilish zavqi yaraldi.
Dunyo dardi go'yo senga begona,
Mudom yuzlaringda quyosh porlaydi.
So'zim shu: asli sen qalbda yagona,
Bilmam qanday tuyg'u senga chorlaydi?
Kim uchun gavhar-u, kim uchun dursan,
Mudom yuksaklarga aylaysan parvoz.
O'zgani bilmadim, men uchun hursan,
Baxtimni qutlaysan, mehribon ustoz.

Sarvinoz NARZIYEVA,
Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi
14-umumta'lim maktab o'quvchisi

ASR VABOSI

Giyohvandlik asr vabosi,
U umrning ofat balosi.
Inson uchun keltirar ziyor,
Undan qochgin, u juda yomon.

Ota-onang kamoling ko'rib,
O'tiradi duolar berib.
Bu dunyoda masrur yashagin,
Davralarda qaddingni kerib.

To'g'riso'z bo'l, komil inson bo'l,
Halollikka ayt, nima yetsin?!
Yomonlikdan mudom yiroq bo'l,
Humo qushi boshingdan o'tsin.

Zuhra RAHMONOVA



«QUYOSHILI» DA BILIMDONLAR

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshli» oromgohida Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligiga munosib sovg'a tariqasida ilk bor «Yozgi intellektual sog'lomlashtirish oromgohi» tashkil etildi. Mazkur oromgohda maroqli hordiq chiqarib, bilimlarini yanada oshirish uchun «Bilimlar bellashuvi» tanlovining respublika bosqichida ishtirok etgan 460 nafar o'quvchilarga bepul yo'llanmalar taqdim etildi. Hozirda mazkur oromgohda 360 nafar bola ko'ngilli dam olaypti. Shulardan 220 nafari respublika fan olimpiadalari g'oliblari bo'lib, ular uchun oromgohda ijodiy o'quv mash-

g'ulotlari, qiziqarli fan kechalari, master-klass uchrashuvlari, viktorinalar, mushoiralari, turli tanlov va musobaqalar tashkil etilyapti. Yaqinda ular «Tong yulduzi», «Gulxan» bolalar nashrlari hamda xalq ta'limi mutasaddilari ishtirokida tashkillashtirilgan uchrashuvda tanigly shoir Axtamqulning yangi g'azallaridan bahramand bo'lishdi. So'ngra, mehmonlar «Quyoshli»ning yangi binolari, sport va o'yin maydonchalari, dam oluvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi. Ta'kidlash joizki, oromgoh shu yili to'liq qayta ta'mirlanib, unga yangi binolar, sport maydonchalari, suv



havzasi, ma'naviyat markazi kabi inshootlar qo'shildi. Oromgoh hududi obodonlashtirilib, manzarali va mevali daraxtlar o'tkazildi. Yana bir yangilik: oromgoh hududida amfiteatr ham qurilgan. Uchrashuvda ijodkorlar bugungi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida

so'z yuritishdi, bolalar bilan qizg'in savol-javoblar o'tkazishdi.

Bo'lib o'tgan jonli muloqot davomida bolalar adabiyotida nashrlarining bugungi kundagi faoliyati haqida ham fikrlar bildirildi.

Shahzod SHOMANSUROV



BOLALAR MAYDONCHALARIDA

Aziz o'quvchilar, yurtimiz uzra eng ulug' va eng aziz bayramimiz shukhi kezib yurgan ayni kunlarda jannatmakon diyorimiz qiyofasi kundan-kunga o'zgarib, yanada chiroy ochib, ko'rkamlashib borayotganiga guvoh bo'layotgandirsiz. Shaharlar, tumanlar, olis-olis qishloqlar, qo'ying-chi, har bir go'shada yangilanish. Hamyurtlarimiz qalbida yaratish, yashnatish ishtiyoqi hukmron. Mahallalarimiz, ko'p qavatli uylarimiz atrofida ko'plab bolalar maydonchalarining barpo etilayotgani ham Sizning ziyarak nigohingizdan chetda qolmayotgandir. Yoz chillasining oqshomlarini uka va singillaringiz bilan ana shunday soya-salqin maydonchalarda maroqli o'tkazayotganingizga ham shubhamiz yo'q.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi:

mahallalar ko'rkiga ko'rk bo'layotgan, shuningdek, farzandlarimizning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishlariga xizmat qilayotgan bunday maskanlarning ozodaligi, sarishtaligiga ham e'tibor qarataymizmi? Bu savolni bejiz o'rtaga tashlamadik. Ayrim maydonchalarda kuzatganimiz bor, u yerda o'ynab yurgan bolajonlar, gurunglashib o'tirgan o'smirlar turli chiqindilar tashlab, ifloslantirishadi. Achinarlisi, ayrim onalarimiz, buvilarimiz ham qo'ldagi konfet qog'ozlari, ichimlik, sharbatlardan bo'shagan yelim idishlarni duch kelgan yerga tashlab ketayotgan jajji farzandlari, nabiralariga tanbeh berishmaydi. O'rindiqlar atrofida muzqaymoq qog'ozlari-yu, pista po'choqlarini-ku gapirmasa ham bo'ladi. Axir bu yerga ertaga, indinga ham kelib

dam olishadi-ku?! Qolaversa, farzandlari, nabiralarida uyni, hovlini ozoda saqlash kerak, ko'cha-ko'ya esa bu tartibga rioya qilish shart emas, degan tushuncha paydo bo'lsa, kimga foyda-yu, kimga zarar?!

Aslida bayramoldi bunday noxush fikrlar bilan kayfiyatingizni buzish niyatidan yiroqmiz. Lekin yuridoshlarimiz diyorimizning har bir go'shasini obod qilish ishtiyoqi bilan mehnat qilayotgan bir pallada bunday noxush holatlardan ham ko'z yumib bo'lmaydi, axir. Zero, Vatan ostonadan, mahalladan boshlanadi. Jannatmakon diyorimizni, azim poytaxtimizni bir bor ko'rishga orzumand insonlar qancha. Bizga shunday ajib diyorda yashash baxti nasib etgan

ekan, keling, uni yanada obod qilaylik, bag'rini gullarga burkaylik kelajak avlodlarga bir CHAMANZOR goldaylik!

Ana shu ezu maqsalda gazetamiz orqali «Obod mahallam mening» insholar tanlovi o'tkazishni lozim topdik. Mahallangizni obod qilish borasida olib borilayotgan ishlar, sizlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, «Bolalar maydoncha»lari haqida insho yozib yuboring.

G'oliblar 2012-yil, 1-iyun «Xalqaro bolalar himoya qilish kuni» arafasida aniqlanadi.

«OBOD MAHALLAM MENING»

TANLOVIGA MARIHAMAS!

Maktublaringizni kutib qolamiz.

Quyida jizzaxlik tengdoshingiz Malohat MAHKAMOVANing shu mavzudagi hikoyasini e'tiboringizga havola qilamiz:

KUN XULOSASI

Tong otganiga ancha bo'ldi hamki, Alisher hamon uyquda. Yo'lakdagi telefonning ketma-ket qattiq jiringlashigina uni o'rnidan turg'aza oldi. Yugurib borib telefon go'shagini ko'tardi:


– Labbay, oyijon.
– Alisher, o'g'lim, yaxshi yotib turdingmi?
– Rahmat, yaxshiman, o'zingiz qachon kelasiz?

– Kechgacha borib qolamiz...

Alisher go'shakni joyiga qo'yib, yuvinish xonasiga yo'l olgandi hamki, telefon yana jiringlab qoldi.

– Ha, oyijon, gapingiz chala qolganmidi?!
– Alisher, nima deyapsan, bu men do'sting Farruxman, – degan ovoz keldi go'shakdan. – Bugun bolalar bilan biznikida yig'ilishmoqchimiz, kelasanmi?

– Albatta boraman, o'zi zerikib o'tirgan edim...



Alisher shunday dedi-da, yuvinib, nonushta ham qilmay ko'chaga chiqib ketdi. Mahalladagi avtobus bekati yonidagi do'konchadan «Xot-dog» bilan «Kola» sotib oldi-da, chekkaroqdagi o'rindiqlarga o'tirib, yeya boshladi. Keyin esa ichimlikdan bo'shagan idishni, og'iz-qo'llarini artgan qog'ozini o'rindiqlarning tagiga o'tib yubordi. Bu holni kuzatib o'tirgan keksa bir onaxon o'rnidan turib, haligi chiqindilarni terib oldi-da, bekat yonidagi maxsus qutiga tashladi. Lekin bolakayga bir so'z demadi.

Bu holdan xijolat bo'lgan Alisher do'stinikida ham yozilab o'tira olmadi. Uyga keta qolay desa, Farrux ruxsat bermadi: – Oyi, qarang, Alish ketaman deyapti, – dedi choy olib kirgan onasiga.

– Bir kelib qolibsizlar, men osh damlayapman, uni yemasdan ketish yo'q! – dedi onasi Alisherning yelkasiga qo'lini qo'yib va o'g'liga qarab davom etdi: – O'g'lim, o'rtog'ingning ismini to'liq aytgin. Ismlarni to'liq aytishning xosiyati ko'p, – deya Farruxga tanbeh berdi...

Alisher uyga kelsa, onasi, singlisi qishloqdan qaytishibdi. Ularni ko'rib, quvonib ketdi va o'zicha bugungi kunidan xulosa chiqardi: endi singlimni «Muni» emas, Munisa deb chaqiraman. Ko'chalarga chiqindi tashlamayman, mahallam, ona shahrimni obod qilishga o'z hissamni qo'shaman.

Feruza JALILOVA tayyorladi

Mehmonlar bilan Mustaqillik maydonini tomosha qilib yurgan edik. Bir guruh bolalar qurshovida yurgan muallimlardan biri bizni tanib, salomlasha ketdi. Andijondan kelishibdi. «Bolalar Mustaqillik darsida «Yurtimning Bosh maydoni» mavzusida insho yozishadi. Maydonni o'z ko'zlari bilan ko'rishgani yaxshi-da!» dedi muallim. Shu tarzda bolalar bilan suhbatga kirishdik. Gap aylanib kelib, «Toshkent darvozalari» haqida ham so'rashdi. Bu to'g'rida ko'p yozilganini aytsak-da, o'quvchilar o'z gazetalarida ma'lumot berishimizni iltimos qilishdi. Bugun o'rni kelib, «Toshkent darvozalari» haqida so'z yuritamiz.

BESHYOG'OCH

Beshyog'och maydoni! Bir paytlar mana shu maydonda hashamatli «Beshyog'och darvozasi» mavjud bo'lib, u nafaqat shahar mudofaasi, balki aholi ehtiyoji uchun ham xizmat qilgan. Uning ichki tomonida mavjud bo'lgan Halimtoy va Muhammadkarim hoji madrasalari qayerda bo'lgan? Abulqosim madrasasi, Xo'ja Ahror valiy, Beklarbegi, Ko'kal-dosh madrasalari... Bugungi yoshlar ota-bobolarning bitta dahada shunchalik ko'p ilm dargohlari barpo etganliklarining mohiyatiga yetmoqliklari kerak. Abulqosim madrasasida Abdulla Qodiriy, Munavvar qori, G'ulom Zafariy, Abdurauif Fitrat kabi xalqimizning millatparvar farzandlari tahsil olishgan.

1919-yilda madrasa sho'rolar tomonidan yopildi va o'n yil mobaynida qarovsiz qolib ketdi. Mustaqillikdan so'ng madrasa qayta tiklandi. Hozirda bu yerda hunarmandlar faoliyat yuritishmoqda.

KO'KCHA

Ko'kcha — azim Toshkentning yirik mahallalaridan biri. Manbalarda, dahada uchta darvoza bo'lganligi aytib o'tilgan. Bu darvozalar Ko'kcha darvoza, Chig'atoy darvoza va Sag'bon darvozalaridir. Shuningdek, dahada 57 ta mahalla, 47 ta mavze, 60 ta masjid mavjud edi.

Dahada yana Orifon mahallasi mavjud. Orifon, bilimdonlar qishlog'i demakdir. Bu yerda Shayx Zayniddin bobo yashab o'tganlar. 1214-yilda Amir Temur unga atab kichik maqbara bunyod ettirgan.

LABZAK

Yo'ldosh ota QODIROV:

— Xo'sh, Labzak so'zining ma'nosi nimani anglatadi? Labzak «labi xaz» so'zidan kelib chiqqan, deb eshitganman. Haqiqatan, bolalik paytlarimizda bu yerlar doimo nam, xaz bo'lardi.

Nihoyat, biz Bo'zuv arig'i bo'yiga kelamiz. Xaritada ko'rsatilganidek, suv ikki tarmoqqa: o'ngga — Anhorga, chapga — Kaykovus arig'i tomonga ajraladi. Qariyalar, taxminan yuz metrilar pastda Labzak darvozasi bo'lganligini aytishdi.

CHIG'ATOY

F.HAKIMOV, tarixchi olim:

— Ko'pchilik Chig'atoy atamasi

Chingizxonning o'g'li Chig'atoyxon bilan bog'liq deb hisoblashadi. Lekin bu noto'g'ri. Chig'atoy nomining kelib chiqishi haqida akademik Yahyo G'ulomov, Ahad Muhammadjonov tadqiqot olib borishgan. Chig'atoy so'zi V — VIII asrlarda, ya'ni Chingizxonning yurtimizga bostirib kelishidan qariyb to'rt asr oldin ham mavjud edi...

so'zidan kelib chiqqan. Suq — arabcha «bozor» degani. Bon — qorovul.

NALIMOVA, mahalla fuqarosi:

— Mana bu fikr haqiqatga yaqin. Sag'bonliklar bozorchi, yaxshigina savdogar bo'lishgan ular. Odamlari g'ururli, or-nomusli kishilar bo'lishgan. Bir misol: Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidagi Yusuf hoji aslida shu mahallada yashab o'tgan Muhammad Yusuf hoji ekanligini hamma ham bilmasa kerak.

Darvozaning Oqqo'rg'on deyilishiga sabab, Xo'ja Ahror valiy madrasasining vaqf yerlari Oqqo'rg'on deb atalgan. Unga shu darvoza orqali o'tilgan.

KAMOLON

Kamolon aslida kamonchilar so'zidan kelib chiqqan. Tarixdan ma'lumki, Toshkentda yasalgan o'q-yoylar sharqda «Kamoni Shoshiy» nomi bilan mashhur bo'lgan va Sharq adiblari asarlarida keng ta'riflangan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida «Toshkentda kamon va kamon o'qi yasaydigan ustalarning shuhrati butun viloyatga tarqalgan. Ular patli va patsiz kamon o'qlarini yasaganlar», deb yozadi.

QO'QON

Qo'qon darvoza Qo'ymas bilan Qashqar darvozalarining o'rtasida, Bo'zuvning Chovli tarmog'ida joylashgan edi. Undan to'g'ri O'rdaga o'tilardi. Shuning uchun ham bu darvoza alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning atrofi ancha obod va ko'rkam bo'lgan. Bu yerda ko'plab maxsus hujralar bilan birga karvonsaroy ham mavjud edi.

TAXTAPUL

Murod MAJIDOV:

— Eron manbalarida «pul» yo'l degan ma'noni anglatadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bu so'z Taxtayo'l degani bo'lsa kerak!

Boshqa taxminga ko'ra, Yunusxon hukmronligi yillarida Kaykovus kanali ustiga yog'och ko'priq qurilgani uchun darvoza, ko'priq ham shu nom bilan atalgan.

QO'YMAS

Darvoza Qo'qon xoni noibining o'rdasi bilan Beshyog'och darvozasi o'rtasida bo'lgan. Anhorning so'l qirg'og'ida o'rta asrlarda qurilgan Qo'ymas istehkomi bo'lib, uning qoldiqlari «Tali Qo'ymas», ya'ni «Qo'ymas tepaligi» ham deb yuritilgan.

Darvoza hokim darvozasiga yaqin bo'lgani uchun doimo yopiq turgan, shu bois ham Qo'ymas nomi bilan atalgan.

SAG'BON

Professor Qahramon RAJABOV:

— Sag'bon so'zining kelib chiqishi haqida bahs-munozara ko'p. Hali ham bu to'g'rida bir to'xtamga kelingani yo'q. Menimcha, bu so'z Suqbon

SAMARQAND

Samarqand darvozasi haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar ham juda kam, ammo uning o'rni aniq. Xalqimiz o'z tarixini sevadi, ardoqlaydi va e'zozlaydi, mustaqillikdan so'ng mahalla ahlining tashabbusi bilan hashar uyushtirilib, Samarqand darvozasining ramziy shakli tiklandi.

Amir Temur ham shu darvoza orqali Toshkentga kirib kelgan. Bu yerda uni juda katta tantana bilan kutib olishgan. O'sha kuni tong sahardan darvoza atrofida savdo rastalari qad rostlagan, nonvoylar kechasi bilan ishlashgan, boshqa hunarmandlar ham o'z ishlarini olib chiqishgan. Karnay-surnaylarning ovozlari uzoqlarga ketgan. Sohbiqironning buyrug'i va ko'rsatmasi bilan Samarqand darvozasi qaytadan ta'mirlanib, juda ulug'vor va salobatli holatga keltirilgan.

QASHQAR

Darvoza turli davrlarda Xitoy, Oqqo'rg'on nomlari bilan ham atalgan. Darvozaning Xitoy deb nomlanishi Toshkentning geografik o'rni bilan bog'liq bo'lishi kerak, chunki Buyuk Ipak yo'lining bir tarmog'i shaharning shu qismi orqali o'tgan.

TOSHKENT

Toshkent shahar darvozalari shahar tashqarisi va ichidagi ko'chalarning asosiy yo'nalishiga qarab, mahalla nomi yoki boshqa atama bilan yuritilgan. Masalan, Qo'qonga chiqib ketiladigan darvoza — Qo'qon, Samarqandga chiqiladigan darvoza — Samarqand, Sag'bon darvozasi esa mahalla nomidan olingan. Shahar darvozalari kech tushishi bilan yopilib, tong saharda ochilgan. Darvozalar yopilgach, uni ochishga hech kimning haqi bo'lmagan. Favqulodda holatlarda faqat shahar kutvolining farmoyishi bilan ochishga ruxsat etilgan. Har bir darvozaning bir juft kaliti va temir halqalari bo'lgan. Darvozalar archa daraxti yog'ochidan yasaliib, sirti qalin tunuka bilan qoplangan.

DARVOZALARI...

To'liq HAYIT

TAHRIRIYATDAN:

Ajoyib kunlarda yashayapmiz, aziz bolalar! Tariximiz, bugunimiz haqidagi insholaringizni bizga yuboring. Yurtning a'lo farzandlari bo'ling!

Erta tongdan poytaxtdan 120 kilometr uzoqlikda, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, Yangiqo'rg'on qishlog'ida joylashgan oromgohga yo'l oldik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasiga qarashli «Fazogir Gagarin» nomli bu oromgoh bugun «42 yoshga to'libdi».

Manzilga yetib borganimizda, kun yorishib ketgandi. Yuqorida tog'lar, pastda Chorvoq suv omborining jilolanishi, quyuq daraxtzorlar, serhosil bog'larning to'kinligi jannatmakon yurtning go'zalligini yanada aniqroq namoyon etardi.

O'n gektar maydonni egallagan mazkur oromgoh hududida «Sharq» oilaviy dam olish maskani ham joylashgan. Oromgoh bo'yab sayohatimizga ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar Muhabbat opa Ergasheva hamroh bo'ldi.

– Qarang, – deydi u boshi ko'kka yetgan, yaproqlari yerga tekkan daraxtlarga ishora qilib, – kelganimga ikki oy bo'ldiki, bu yerda aslo chang-g'ubor ko'rmadim...

Bu gaplardan taajjublanib, biz ham yaproqlarga qaradik. Chindanda, har bir yaproq xuddi hozir artib qo'yilgandek top-toza edi...

Oromgoh anchagina balandlikda joylashgani bois, qator-qator zinalarni bosib, dam olayotgan bolalar tomon oshiqdik. Tabiatdan ibrat olgan bolajonlar ham tozalikka amal qilishganidan oromgoh hududida birorta ham chiqindini uchratmadik.

Navqiron, ko'rkam, tabiati musaffo oromgohning bir kuni bizga bolalikning beg'ubor zavqini baxsh etdi shu onda.

Bugun oromgohda tug'ilgan kun marosimi. Tavallud kunlarini nishonlayotgan bolalarni qutlash uchun taniqli kinoaktyor Ulug'bek Qodirov kelibdi.

yetakchi-yu tarbiyachilarga bo'shatib berdi. O'zi esa do'stlari bilan tomoshabinlar qatoridan o'rin oldi. Sahnada bor mahoratlarini ko'rsatgan yetakchilarning chiqishlaridan hech kim zerikib qolmadi. Biz ham ularning dasturidan joy olgan «Oromgohning birinchi kuni» kichik sahna ko'rinishini tomosha qilib, miriqib-miriqib kuldik.

Bir xil sport kiyimidagi sportchi bolalarni ko'rib, ularni suhbatga tortdik:

– Siz qaysi sayyoradansiz?

– Biz «Merkuriy» sayyorasidanmiz. Tajribali murabbiy Lenur Yeremeyevning shogirdlarimiz, – deydi Sardor Sodiqov. – Bu yerga jamoamiz bilan kelganmiz. Ikki

«FAZOGIR»NING

BIR KUNI...

– Tug'ilgan kunimga Ulug'bek Qodirovning tashrifidan juda xursandman. Bu kun bolaligimning shirin xotiralaridan biriga aylandi, – deydi Respublika olimpiya xazinalari kollejining futbol bo'limi 1-bosqich talabasi Shohruh Mahmudxo'jayev.

– Bolaligimdagi yozgi ta'tilim aynan mana shu oromgohda o'tgan. Bu yerning har bir daraxti, yaprog'i, zilol suvlari-yu fayzli ko'chalarini tanish. Oromgohdagi har bir kunimning maroqli o'tishida bu yerda xizmat qilgan yetakchi, tarbiyachi, oshpaz-u bog'bonlarning mehnatlari beqiyos. O'z vaqtida men ham sizlardek sho'x bola edim. Bu yerga kelishdan avval juda ko'p o'yladim. Nihoyat, oromgohda birga dam olgan do'stlarim bilan birga keldik, – dedi aktyor va bolajonlar bilan til topishib ketishdi...

So'ngra, sahnani bolajonlarga,

yildirki, ta'tilimiz ushbu oromgohda maroqli o'tyapti.

– Ayniqsa, oromgohning futbol maydoni tepalikda joylashgani bois bahavodir, – deydi Shohjahon Nishonov.

– Mashg'ulotlarimizning tog'lar bag'rida o'tishi bizga yanada kuch-quvvat, yaxshi kayfiyat bag'ishlamoqda, – deya suhbatimizga qo'shildi quvnoqlik bilan Alisher Baymakov.

– Yaqinda jamoamiz bilan Germaniya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya safaridan qaytdik, – deydi jamoa sardori Yusuf Shoimov. – U yerdagi tengdoshlarimizdan kam emasligimizni anglagach,

mashg'ulotlarga yanada kuch berdik. Biz ham yaqinda yurtimiz faxriga aylangan Aleksey Yevstafeyev shogirdlari kabi jahon chempionatiga chiqishga tayyorgarlik ko'ryapmiz...

Oromgohning bir kuni bizga-da, olam-olam shavq bag'ishladi. Ayniqsa, purvior tog'lar, fusunkor bog'lar, tog'liklarning baland himmati, barcha-barchasi, hatto «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolarining qo'l mehnatlaridan-da zavqlandik. Mustaqilligimizning yigirma yoshiga bag'ishlab mahorat bilan matodan tayyorlangan po'sildoq nonlarda ham, mehr ila chizilgan rasmlarda ham istiqloq shukhi mujassam.

Quyosh allaqachon botgan. Oromgohdagi kunimiz maroqli va mazmunli o'tayotganidanmi, aslo charchoq sezmasdik. Tog'lardagi shifobaxsh giyohlar hidi, tabiatning mo'jizakor sehdidan, saxovatpesha hamrohlardan, bolajonlarning beg'ubor mehridan kuch olgandik-da.

Salom mening tillari burro, qaqajon qizaloqlarim! Ta'tilingiz yaxshi o'iyaptimi? Hovli-ko'chalarigizda gul-u rayhonlar ochilib, yashnab turibdimi?

Har bir kunimiz quvonchlarga, shodliklarga to'liq bo'lsin, deya niyat qilgan holda bugungi sahifamiz mehmonlari bilan tanishtirsam. Ularning dil so'zlarini o'qib, iqtidori dugonalaringiz Mustaqilligimizning 20 yillik to'yiga qanday tayyorgarlik ko'rishayotganini bilib olasiz.



Shahlo XOLMATOVA,
Istiqlolga tengdosh bu
dugonangizni yaxshi tanisiz. U
gazetamizning eng faol, jonkuyar
muxbirlaridan. Poytaxtdagi
272-maktabda tahsil olgan
Shahlo o'zining a'lo o'qishi,
jamoat ishlaridagi faolligi
bilan tengdoshlaridan
ajralib turardi.



DILIM MURODI

— Onajonimga havas qilib jurnalistikaga mehr qo'ydim, — deydi Shahlo orzulari haqida to'xtalib. — Ilk ijodimni «G'uncha» jurnaliga olib keldim. 2004-yilda «Mehribonlarim», «Onajonim» nomli ilk she'rlarim jurnalda chop etilgach, adabiyotga mehrim yanada ortdi. Keyinchalik «Gulxan», «Sog'lom avlod», «Tong yulduzi» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan «O'xshagim keladi Zulfiya-xonimga», «Mustaqillik tengdoshiman» kabi she'rlarim o'z o'quvchisini topdi. «Ta'zim» deb nomlangan she'riy kitobimning nashrdan chiqishi hayotimda unutil-

mas voqea bo'ldi. Shu yili «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofotiga nomzodimni qo'yib, shahar bosqichiga o'tib, «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandim.

— Aziz va mehribon onajonim Dilbar opa ham qariyb 30 yildan ziyodroq ko'z nurlari-yu qalb qo'rlarini ayamay, matbuot sohasida xizmat qilib keladilar. Kelajakda onam kabi yaxshi jurnalist, shirinsuxan suxandon bo'lish orzusidaman. Insonlarga yaxshilik qilsam, ona xalqimga foydam tegsa, o'zimni baxtiyor his qilardim.

SARISHTALIK SABOG'I

Maktabimiz qoshidagi oromgohda «Sarishta qiz» nomli tanlov otkazdik. Unda yetti nafar qiz sakkizta shart bo'yicha o'zaro bellashdilar. Shartlarning bari qiziqarli, oilada qiz bolalar uchun zarur bo'lgan yumushlardan iborat bo'lib, hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholandi.

1-o'rin Nodira Umrzoqovaga, 2-o'rin esa Ozoda Emazarova va Madinabonu Ibrohimovaga nasib etdi. 3-o'ringa Zilolaxon Mirzayeva loyiq topilib, maktab ma'muriyati tomonidan maxsus sovg'alar bilan taqdirlandi. Umid qilamizki, g'olib bo'lmagan qizlarimiz ham tadbirdan zavqlanib, sarishtalik sabog'ini oldilar.



Aziza ABDOVALIYEVA,
Zangiota tumanidagi 78-maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi

Osimxon VOSIXONOV rasmlaridan foydalanildi

Onamning aytishlaricha, ilgari o'qituvchilar qulog'iga kichik-kina sirg'a taqqan qizlarni ham tartibga chaqirib:

— Bundan keyin maktabga tilla taqib kelma, ota-onang bilan to'y-hashamlarga, mehmonga borganda taqasan, — deya tanbeh berishar ekan. Hozirgi ayrim qizlarimiz taqib yurgan taqinchoqlarni, tutgan uyali telefonlari-yu kiygan kiyimlarini baholasak, narxidan hayratga tushasan kishi.



SO'ZLAR JARANGI



— Ayrim qizlarimizning ochiq-sochiq kiyimlar kiyib, hammaning e'tiborini tortib yurishlari milliy tarbiyamizga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun, aziz tengdoshlar, o'zligingizni yo'qotmang. Go'zallik, ko'rkamligingizni ta'riflab so'zlarimiz jaranglasin.

Gulchehra YUSUPOVA,
Farg'ona shahri

Go'zaloy BEKBULATOVA,
Toshkent shahridagi
maxsus ta'lim
maktabining 3-sinf
o'quvchisi. U juda
yosh bo'lishiga
qaramay, shu kungacha
bir qancha rollar ijro etishga
ulgurdi.

TABASSUMI YARASHGAN QIZ

Jumladan, «Malohatning darsxonasi», «Beg'ubor orzular» kabi videofilmlaridagi Hilola, Dildora obrazlari orqali tengdoshlariga tanildi. Shu kunlarda bu iqtidorli qizaloqni rejissor aka-opalari yana bir necha filmlarga taklif etishyapti. Kinorejissor Zamira Begim-qulovanning «Opa-singil» nomli

100 qismdan iborat teleserialida bosh rolni mahorat bilan ijro etyapti.

— Ilk bor onajonim meni Ma'rifat opa Ortiqovaga shogirdlikka berganlarida, qalbmni hayajon bosgan edi. Ustozimdan ko'p narsalar o'rgandim va yana izlanmoqdaman. Hozir esa hayajonlanmay, bema'lol filmlarda suratga tushyapman. Faqat rolimda yig'laydigan joyi bo'lsa, biroq qiyinalaman. Chunki men tabiatan xushchaqchaq qizman-da, — deydi biz bilan suhbatda Go'zaloy.

Qiz bolaga kulib yurish yara-shadi, albatta. Go'zaloy filmlarda yig'loqi qiz rolini o'ynasada, hayotda doimo kulib yursin!

Siz ham doimo kulib yuring, qizlarjon!

OFTOBOYIM tayyorladi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV

Navbatchi:
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilshoda DADAJONOVA,
Dilmurod RAHMATILAYEV

Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31634
Buyurtma N: J 2382